Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarli tabiiy, tarixiy, diniy va madaniy resurslar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan oqilona va samarali foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda ziyorat turizmi infratuzilmasini takomillashtirish orqali viloyatni O‘zbekistondagi muhim ziyorat turizmi markazlaridan biriga aylantirish imkoniyati mavjud. Bu esa hudud iqtisodiyotining rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, tarixiy-madaniy merosning asrab-avaylanishi va aholining ma’naviy-madaniy hayotini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulahatov N., G‘oziyev T. Shohimardon. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010.
2. Abdulaxatov N. Farg‘ona vodiysi aholisi turmush tarzida ziyoratgohlarning o‘rni. Diss. – Toshkent, 2008.
3. Azimov V. Oltiariq tumanidagi ziyoratgohlar risolasi. – Oltiariq, 2023.
4. Bo‘riyev M., Qamabarov T. Xoja Turob bobo tarixi. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2000.
5. Djo‘raboyeva X.Sh. Farg‘ona vodiysida an’anaviy ziyorat turizmining transchegaraviy muammolari. – 2025.
6. Hursanaliyev N. Farg‘ona viloyati ziyoratgohlarining tarixi. // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – №17. – B. 88–93.
7. Ibodinov F., Eminov Yu. Oltiariq tarixidan lavhalar. – Farg‘ona: “Farg‘ona”, 1996.
8. Kadirov Sh.M. Qo‘qon shahridagi tarixiy-madaniy yodgorliklar va ularning holati (1991–2020-yillar): saqlash, muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish masalasi. // Modern Science and Research. – 2023. – Vol. 2, Issue 5.
9. Komilova N. Diniy turizmini rivojlantirishda ziyoratgohlarning o‘rni va ahamiyati. // FarDU ilmiy xabarlari. – 2025.
10. Nazarova N.G., Madrahimova M.S. Peculiarities of Using Shrines in Fergana Valley for the Purpose of Tourism. // International Journal on Integrated Education. – 2019/2020. – Vol. 2, №6.
11. Xoldorov J. Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlarining turistik salohiyati (Farg‘ona viloyati misolida). // “Modern Education: Problems and Solutions” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024.
12. Usmonov Y. Jannat bog‘i. – Farg‘ona: “Farg‘ona”, 1996.

QADAMJOYLAR VA ZIYORATGOHLARDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Turdiboyeva Shaxloxon Xakimjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasi stajyor-tadqiqotchisi
shahloturdiboyeva1993@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysidagi qadamjoylar va ziyoratgohlarning turizm hamda rekreatsiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari geografik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek qadamjoy va ziyoratgohlarning tarixiy, diniy, madaniy, tabiiy hamda rekreatsion ahamiyati, ularning hududiy joylashuvi va turistik salohiyati yoritilgan. Farg‘ona vodiysidagi ziyoratgohlarning shifobaxsh xususiyatlari bilan bog‘liq mahalliy an’analar, tabiiy sakral obyektlar va ular asosida shakllangan ziyorat maskanlarining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishda transport, joylashtirish, ovqatlanish, ekskursiya, gidlik, axborot va boshqa servis xizmatlarining ahamiyati asoslangan. Farg‘ona viloyatidagi turistlar oqimi va joylashtirish vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida hududning turistik salohiyati baholangan.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, qadamjoy, ziyoratgoh, ziyorat turizmi, diniy turizm, rekreatsiya, sakral obyektlar, tabiiy sakral hududlar, madaniy meros, turizm infratuzilmasi, turistik salohiyat, ichki turizm, shifobaxsh ziyoratgohlar, turistik marshrut, barqaror turizm.*

Kirish. Respublikamizda diniy va ziyorat turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston

Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari dasturi”da yirik moddiy madaniy meros obyektlarida ichki turizm oqimlarini shakllantirish rejalarida “Qadamjoy va ziyoratgohlarda turistlar uchun yaratiladigan qo‘shimcha xizmatlarni kengaytirish” hamda “turistlar uchun yangi marshrutlarni tashkil etish masalasi” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan[7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-sonli “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, 2026-yil 12-yanvardagi PQ-5 sonli “Farg‘ona turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 120-sonli “Muqaddas qadamjoylar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali turizm, ziyorat va rekreatsion sohalarni rivojlantirish mumkin.

Har bir xalqning tarixida, dinida va madaniyatida muqaddas hisoblangan joylar – ya’ni qadamjoylar va ziyoratgohlar muhim o‘rin egallaydi. Odamlar asrlar davomida bunday joylarga borib, ibodat qilgan, duolar o‘qigan, ruhiy orom topgan. Bugungi kunda ham bunday joylar ahamiyatini yo‘qotmagan. “Qadamjo” va “ziyoratgoh” tushunchalari nafaqat diniy-ma’rifiy ahamiyatga ega, lekin ularni geografik jihatdan o‘rganilishi ham muhim hisoblanadi. Bu turdagi obyektlar din, madaniyat va tabiiy geografiya kesishmasida yotadi. Ularning joylashuvi, inson oqimi, iqtisodiy va ekologik jihatlar — bularning barchasi o‘ziga xos tarzda birlashadi. Shuning uchun geografik nuqtai nazardan muqaddas joylarni o‘rganish – hududning maxsus xarakteristikasini ochish, barqaror rivojlanish va ularni asrash choralarini aniqlashda muhim o’rin tutadi.

Natijalar va muhokama. “Qadamjo” – asosan islom dinida keng tarqalgan tushuncha bo‘lib, payg‘ambarning yoki marhum diniy shaxsning biror joyda bo‘lgani, u yerda izlari, marosimlar o‘tkazilgani bog‘liq manzil sifatida qaraladi”[6].

Ziyoratgohlar esa — tarixiy, diniy va madaniy jihatdan muqaddas sanalgan, muayyan shaxslar bilan bog‘liq yoki diniy e’tiqodlar asosida shakllangan hududlar bo‘lib, ular avlodlar xotirasida muqaddaslik darajasiga ko‘tarilgan. Ziyoratgohlar qadimiy xalq an’analari, tarixiy voqealar va diniy urf-odatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularni o‘rganish keng qamrovli kompleks yondashuvni talab etadi. Ular nafaqat diniy-ma’naviy markaz, balki antropologik, etnologik, arxeologik va madaniy-geografik obyektlar sifatida ham ahamiyatga ega.

Ma’lumotlarga ko‘ra respublikada son jihatidan eng ko‘p ziyoratgohlar Farg‘ona iqtisodiy rayoniga mos keladi. Mazkur rayonda ularning soni 400 tani tashkil etadi. Mazkur ziyoratgohlarning 390 tasi islomiy ziyoratgohlar bo‘lib, ular jami Respublikaning huddi shunday islomiy ziyoratgohlarining 35,6 foizini tashkil etadi. Qolgan ziyoratgohlarning 8 tasi xristian ziyorat obyekti hisoblanib, ular Respublikadagi jami xristian ziyorat obyektlarining 14 foizini tashkil etadi. Hamda 1 tadan buddaviylik va yahudiylik ziyorat obyektlari mavjud

bo‘lib, ular jami Respublikadagi buddaviylik ziyorat obyektining 11,1 foizini va yahudiylik ziyorat obyektining 12,5 foizini tashkil etadi.

Farg‘ona vodiysi geografik joylanishi, tabiatining o‘ziga xosligi, tabiat obyektlarining betakrorligi, insoniyat madaniyatining rivojlanganligi bilan tabiiy- tarixiy va diniy, madaniy, ma’rifiy sakral ob’ktlariga juda boyligi bilan ajralib turadi. Farg‘ona vodiysidagi tabiiy-tarixiy sakral hududlar geografik joylanishiga ko‘ra vodiyning tekislik, daryo vodiylari, adirlar, tog‘ oldi va tog‘li hududlarni egallaydi. Sakral obyektlarning hududiy joylanishi mahalliy etnoslarning viloyat hududini o‘zlashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Ko‘pincha tabiiy- tarixiy sakral obyektlar viloyatda tog‘li hududlardagi tog‘lar, adirlar etagidagi muqaddas buloqlar bo‘yida, daryo va soyliklar yaqinida joylashib, tarixiy- madaniy- tabiiy majmualarni hosil qiladi. Shuning bilan birga tarixiy- arxeologik sakral ob’ektlarning joylanishida viloyat hududining tarixiy bosqichlardagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy xolati, harbiy - mudofaa salohiyati ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Muqaddas zaminning buyuk allomalari yaratib ketgan katta ma’naviy boylik, din va madaniyat tarixi, urf-odatlar asrlar osha turizm obyekti sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Farg‘ona viloyatida bir qancha diniy turizm obyektlarining mavjudligi sababli keyingi yillarda diniy ziyoratgohlarga turistlarning kelishi sezilarli darajada ko‘paygan. Ayniqsa sakral obyektlarning tabiat bilan mutanosib bo‘lgan hududlar So‘x tumani, Qo‘qon shahri, Buvayda, Rishton, Quva, Oltiariq tumanlarida mavjudligi va mavjud ziyoratgohlar ulkan ma’naviy, madaniy, tarixiy va albatta diniy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[3].

Ziyoratgohlar xalq ongida shifobaxsh qudratga ega muqaddas maskanlar sifatida turli kasalliklardan shifo topish, jismoniy va ruhiy salomatlikni tiklash xususiyati bilan ham ajralib turadi.

1.Quloq-burun kasalliklari va yo‘talni davolovchi ziyoratgohlar jumlasiga Ko‘kmozor, Ko‘kto‘nliota, Ko‘ktolmozor, Xo‘jayi Kabudpo‘sh, Qaybarbuloq, Ko‘k tilla ota, Ko‘ktosh, Sadkaka ota, Safedpo‘sh ota kabilarni kiritish mumkin.

Namangan tumani Toshbuloq shaharchasi Yettibuloq ziyoratgohi mavjud bo‘lib, bu yerga asosan qulog‘i og‘rigan yoki qulog‘i oqib qolgan bolalar olib kelinadi. Shunda ayollar o‘z farzandining boshidan tanga aylantirib, keyin uni buloqqa tashlaydilar. Shu tariqa, o‘z farzandining dardiga shifo topishiga ishonadilar. Bugungi kunda ziyoratgohlarda suvga tanga tashlash ko‘proq quyidagilar bilan bog‘lanadi: niyat qilish: Kishilar “niyatim amalga oshsa, yana qaytib kelaman” degan maqsadda tanga tashlaydilar.

Qadimda tangalar asosan, kumush va misdan zarb qilingan. Bunda metallar tabiiy ravishda mikroblarni o‘ldiruvchi xususiyatga ega: suvdagi zararli bakteriya va viruslarni yo‘qotadi, kumush ionlari suvni uzoq vaqt davomida toza va ichishga yaroqli holatda saqlaydi.

Mis tangalar suvdagi zambrug‘ va turli infeksiyalarga qarshi kurashadi. Shu sababli, quduq yoki suv havzalariga tashlangan tangalar suvning sifatini yaxshilagan, odamlar bunday suvni ichib, shifo topgan. Bu vaqt o‘tishi bilan “suv mo‘jizaviy shifobaxsh ne’mat” degan tasavvurni shakllantirgan.

Qaynar buloq ziyoratgohi – mazkur sakral obyekt Beshariq tumanining Qoraqo‘yli qishlog‘ida joylashgan. Tabiiy sakral obyekt sifatida buloqning muqaddaslashuvi va ziyoratgohga aylanishida uning suvini quloq og‘rig‘iga davo sifatida foydalanishidir. Shuningdek buloq suvida baliqlar yashagan, ularni muqaddaslashtirib, ovlash ta’qiqlangan.

Farg‘ona viloyatining tog‘li hududlarida ham ko‘plab uchraydi. Shohimardon qishlog‘idan Qurbonko‘lga borishda Ko‘ktosh ziyoratgohidagi toshni tabiiy sakral obyekt sifatida e’tirof etiladi. Uning sakrallashuvining asosiy sababi ko‘kyo‘talga chalingan bemorlar bu yerga olib kelinib, ko‘ktoshni yalaganlar va shu tarzda shifo topganlar[1].

2. ***Turli yara va so‘gallarni davolovchi ziyoratgohlar***. Bunday ziyoratgohlarning asosan, suvi va tuprog‘i shifobaxsh hisoblangan. Bunday ziyoratgohlar jumlasiga So‘gal mozor, Sirpo‘sh ota, Xo‘ja Turob, Ziyovuddin Haziniy, Bibi Ubayda, Bastom buva, Toshqiz, Tezgir ota, So‘fi azizlar, G‘avs-ul A’zam, Toptiq azizlar, Ukkosha ota, Bibi Seyshanba, Ummat buva, Bo‘ston buva, Oqmozor, Boybuloq, Bobo Xuroson (Chechak Piri), O‘n bir Ahmad v.h

Masalan, Oltiariq tumani markazidagi eski qabriston hududida **So‘gal mozor** joylashgan. Bu mozorning tuprog‘idan so‘galga surtilsa so‘galni yo‘q qilib yuborar ekan. Lekin bu yerda shifobaxshlik tuproq tarkibidagi tuzlar bilan bog‘liqmi yoki ruhiy jihatdan davolanishimi, har ikki holatda ham ko‘plab insonlar bu ziyoratgohga tashrif buyuradilar.

3. ***Bepushtlik va farzandsizlik bilan bog‘liq kasalliklarni davolovchi ziyoratgohlar***. Misol uchun Sarmozor azizlari, Poshsho Pirim Shoh Jalil, Sho‘rtepa, To‘raxon dadam, Abdulazizxon Xondada, Xo‘ja Ahmad Valiy, Mavlono Lutfulloh, Bibiona, Imomota, Do‘lana mozor, Mirishkor ota, Bibimushkulkushod, G‘oyib eralar, Shahid mozor ziyoratgohlarini olish mumkin. Mahalliy aholi tasavvurlariga ko‘ra, ushbu muqaddas mozorlarga ixlos bilan borilsa, befarzand ayollar onalik baxtiga muyassar bo‘ladi.

Oltin beshik ziyoratgohi ham tabiiy sakral obyektda joylashgan bo‘lib, Qurbonko‘lning yuqorisida, tik qoyada joylashgan degan rivoyatlar bor. Ko‘li Qubbon ham o‘ziga xos manzara, tabiiy go‘zalligi hosilasi bo‘lishi bilan birgalikda insonlar uchun muqaddas sakral hudud hisoblanadi. Ko‘lning rekreatsiya va turistik salohiyati yuqori, kelib chiqishiga ko‘ra tabiiy jarayonlarga bog‘liq bo‘lgan ko‘l, asrlar davomida sakrallashtirilgan va muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan.

Chilmahram ziyoratgohi- Beshariq tumanining Sirdaryo sohillarida joylashgan ushbu sakral obyekt adirning 50 metrdan yuqori bo‘lgan tepa qismida joylashgan kichik g‘or va bir necha kichikroq g‘orlar to‘plamidan iborat. G‘or ichida chillaxaram degan avliyoning qabri joylashgan. Bu mozorga kelib ziyorat qiluvchilar farzand tilab qurbonlik qiladilar, so‘ngra pastga tushib Sirdaryoning suvida cho‘milib poklanadilar.

Oqmozor buva ziyoratgohi- sakral obyekt sifatida tuproq uyumidan yasalgan tepalik bo‘lib Toshloq tumanining Zarkent qishlog‘ida joylashgan. Bu tepalik yonida buloq hosil bo‘lgan. Mozor tuprog‘idan badaniga va sochiga oq tushganlar surkasa davo bo‘ladi deb, shifo topganlari uchun “Oq mozor” deb ataganlar.

Fozilmon ota ziyoratgohi-Andijon viloyatining qo‘shni Qirg‘iziston bilan chegaradosh bo‘lgan eng chekka sharqiy-janubiy hududidagi Xonobod shahrining Fozilmon ota mahallasida joylashgan qadimiy muqaddas ziyoratgoh bo‘lib, yozma manbalarda bu yerga hazrat Foziliddin (Fazliddin ham deyiladi) Dehlaviy dafn etilgan. Bu aziz va mo‘tabar maskanning eng muhim va asosiy xosiyati insonlar salomatligini o‘ylab muhayyo etgan beminnat shifobaxsh bulog‘idir. Ming bir dardga davo bu buloqning hayotbaxsh tirik suvlaridan necha asrlar davomida hadsiz-hisobsiz odamlar shifo topib kelayotganligi, nafaqat Andijon, balki respublikamizning boshqa viloyatlari aholisi ham foydalanilayotganligini

yaxshi bilamiz. Buloq suvi inson organizmiga tetiklik, quvvat baxsh etadi, ko‘plab xastaliklarga, ayniqsa, ichki va teri kasalliklariga juda yaxshi davo bo‘ladi.

Aytishlaricha, XII asrda yashab o‘tgan diniy ulamo, payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) avlodlaridan Sayyid Foziliddin Dehlaviy hazratlari Allohning irodasi ila muqaddas buloq bo‘yini o‘ziga makon qilgan. Insonlarni dinu diyonatga, haq-haqiqatga, ma’rifatga chorlagan. O‘z karomatlari bilan el orasida aziz-avliyolik nomini olgan. Olamdan o‘tgach, shu joyga dafn qilinadi.

Fozilmon ota ziyoratgohi hududidagi ikki asrga tengdosh ulkan chinorlar bu maskanga so‘limlik va fayz berib turibdi. 1996-yilda Fozilmon ota maqbarasi milliy me’morchilik an’analari asosida, gumbazli ko‘rinishida qayta tiklandi.

Farg‘ona vodiysining turistik salohiyatini xalqaro bozorga olib kirishda uning quyidagi o‘ziga xos turistik imkoniyatlariga to‘xtalish o‘rinlidir. Farg‘ona vodiysi bugungi kunda hududiy joylashish, turistik tabiiy resurslar nuqtai nazaridan turizmni keng ko‘lamda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan mintaqa hisoblanadi.

Turizm o‘zining ko‘p qirrali turlari bilan barcha sohalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelayotgan sohalardan biridir. Ichki turizm iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi.

Jumladan, mehmonxona va mehmon uylari, umumiy ovqatlantirish korxonalari, transport xizmatlari, kommunal uy xo‘jaliklari, yo‘l qurilish, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo tarmoqlari va servis sohalaridir. Ichki turizmni rivojlantirish bir vaqtni o‘zida o‘ziga xos dam olish, ko‘ngil ochar maskanlar industriyasini o‘z ichiga oladi. Turizmda asosiy xizmatlar qo‘shimcha xizmatlar mavjud bo‘lib asosiy xizmatlarga:

- kutib olish xizmatlari;
- joylashtirish xizmatlari;
- ovqatlantirish xizmatlari;
- transport xizmatlari;
- ekskursiya xizmatlariga bo‘linadi.

Har bir xizmat infrastrukturasi mukammal shakllanganda turistlarda muammolar kuzatilmaydi. Yana qo‘shimcha xizmatlar mavjud, ular ham jarayonlarda bevosita ishtrok etadi. Kutib olish xizmatlariga demak, masofalardan turib ishlash tushuniladi. Turfirmadan mas’ul xodim turistni kutib olishga aeroportga borishi yo‘l infratuzilmasini, aeroport infratuzilmasini va transport infratuzilmasini xalqaro va ichki standartlarga javob berishini talab qiladi[4].

Joylashtirish xizmatlarida mehmonxona va mehmon uylarini infratuzilmasi ham standartlarga to‘g‘ri kelishi va mamlakatning turist qabul qilish salohiyati yetarli bo‘lishi kerak.

Umumiy ovqatlantirish korxonalarining infratuzilmalari turizmda turistlar uchun xizmat ko‘rsatish sifatlari ham mukammalikni talab etadi.

Turistlarni tashishda transport xizmatlari infratuzilmasi ham turizmni rivojlanishida, uni barqaror borishida bevosita xizmat ko‘rsatadi.

Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotida pul massasini aylanishini tezlashtirish bilan bozor iqtisodiyotini rivojlantirmoqda. Ichki turizmda madaniyat almashinuvi, aholining maqsadga qarab tashrif buyurgan manzil haqida ma’lumot olishi yoki biror bir mavzuda qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi kuzatiladi. Tashrif buyurgan ichki turistlar shu joyga mablag‘

sarflab aholini yashash tarzini yaxshilashga olib keladi. Tashrif buyurgan hududlarda infrastrukturalar shakllana boshlaydi. Eng muhimi aholining turizm savodxonligi oshadi[4].

Qadamjolar va ziyoratgohlarda diniy turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi atrof-muhit holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga, hududlarda kichik biznesni tashkil etishga ko‘mak beradi va ma’lum bir hududning madaniyati hamda tabiiy go‘zalligi haqida bilimlarni tarqatish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ziyoratlar geografik makonga, transport yo'nalishlarini shakllantirishga, infratuzilmani rivojlantirishga va butun dunyodan ziyoratchilarni jalb qilishga ta'sir qiladi.

Diniy turizm rivoji nafaqat alohida bir tarmoq, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik sohalarni ham qamrab oluvchi tizimli jarayon hisoblanadi.

Avvalo, turizm infratuzilmasining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda mehmonxonalar va mehmon uylari barpo etilishi, ziyoratchilar uchun majmualar hamda servis markazlari tashkil etilishi, shuningdek, axborot va gidlik xizmatlarining kengayishi turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi yo‘nalish xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lib, ovqatlanish shoxobchalarining ko‘payishi, savdo va hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarilishi, suvenirlar tayyorlash hamda mahalliy aholi bandligining oshishi turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta’minlaydi.

Shuningdek, madaniyat va tarixiy merosni saqlash sohasi turizm rivojida muhim o‘rin tutadi. Muqaddas qadamjolar, maqbaralar va masjidlarni restavratsiya qilish, tarixiy-madaniy obidalarni muhofaza etish, milliy urf-odat va an’analarni tiklash hamda targ‘ib qilish orqali madaniy turizm rivojlantiriladi.

Diniy turizm natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, mahalliy byudjet daromadlari oshadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanadi hamda qishloq hududlarining iqtisodiy faolligi kuchayadi.

Bundan tashqari, transport va kommunikatsiya tizimining rivoji turistlar uchun qulaylik yaratadi. Ichki va hududlararo yo‘llarning yaxshilanishi, raqamli xaritalar va mobil ilovalarning joriy etilishi, internet va aloqa infratuzilmasining rivojlanishi turizm xizmatlarining sifati oshishiga olib keladi.

Yakuniy yo‘nalish sifatida ekologiya va barqaror rivojlanish masalalari yoritilgan. Muqaddas tabiiy hududlarni asrash, ekoturizm bilan integratsiya qilish va aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali turizmni tabiatga zarar yetkazmagan holda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Birgina Farg’ona viloyatining mavjud turizm salohiyati, ushbu hududga yildan yilga mahalliy va xorijiy turistlar oqimini oshishiga sabab bo‘lmoqda. 2024-yil davomida viloyatga jami tashrif buyurgan sayyohlar soni 3 mln. 550,64 ming nafarni tashkil etib, bundan 3 mln. 75 ming nafari ichki va 475,64 ming nafari xorijiy sayyohlar tashrif buyurishgan.

Shuningdek joriy yil davomida viloyatimizda yangi 19 ta joylashtirish vositalari tashkil etilib, ularning soni jami 361 taga yetkazildi. Shundan, 47 ta mehmonxona; 277 ta oilaviy mehmon uylari va boshqa turdagi joylashtirish vositalari; 37 ta xostellardan iborat.

Xulosa: Farg‘ona vodiysi hududdidagi qadamjoylar va ziyoratgohlar tarixiy, diniy, madaniy va tabiiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish mintaqaning turizm salohiyatini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratadi. Ziyoratgohlarning geografik joylashuvi, tabiiy landshaft bilan uyg‘unligi va tarixiy ahamiyati diniy turizmning samarali rivojlanishi uchun

qulay sharoitlar yaratadi. Shuningdek, bu turistik obyektlar hududning etnologik, arxeologik va antropologik jihatlarini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni kompleks tarzda tadqiq etish zarurati mavjud.

Farg‘ona vodiysidagi ziyoratgohlarning boy tarixi, arxitekturaviy va diniy ahamiyati, ularning muqaddas ob’ektlar sifatida xalq orasida qadrlanishi, hududga mahalliy va xorijiy turistlar oqimini jalb etishda muhim omil hisoblanadi.Farg‘ona, Marg‘ilon, Rishton, Namangan, Andijon, Jalolquduq, Pop va Quva tumanlaridagi ziyoratgohlar nafaqat diniy-ma’naviy markaz, balki ekologik jihatdan noyob hududlar bilan uyg‘unlashgan turistik maskanlar bo‘lib, ularni kompleks tarzda rivojlantirish mintaqaning turizm infratuzilmasini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va mahalliy aholi bandligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmining rivoji hudud iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shadi: mehmonxona, mehmon uylar, umumiy ovqatlantirish, transport va qo‘shimcha xizmatlar sohalari rivojlanadi; kichik biznes va hunarmandchilik kengayadi; mahalliy byudjet daromadlari oshadi. Shu bilan birga, turizmning barqaror rivoji ekologik va madaniy muhitni saqlashni ta’minlaydi, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiladi va madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlarining ilmiy-geografik va tarixiy jihatdan o‘rganilishi, ularni kompleks turizm yo‘nalishlari bilan bog‘lash, qo‘shimcha xizmatlar va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali hududning ichki va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish, barqaror turizmni ta’minlash va mintaqaning madaniy-merosini kelajak avlodlar uchun saqlash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulahatov N, G‘oziyev T. Shohimardon.-T.: Yangi asr avlodi, 2010.-592 b.
2. Abdulahatov N., Zohidov F. Farg‘ona tumani tarixi.-Farg‘on, 2013.-307 b.
3. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология. Ўқув қўлланма. Фарғона. 2021
4. Бойтураев О.У. Фарғона водийсида туризм соҳаси рақобатбардошлигини ошириш имкониятлари. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Фарғона, 2023.
5. Имом Зарнужий. Илм олиш сирлари / Таржимогс Зокиржон Шарифов. Т Моваройннаҳр, 2004. - Б. 60
6. Ислом энцикиопедия...-Б. 26
7. https://lex.uz/docs/5283956

FARG‘ONA VILOYATIDAGI SAKRAL LANDSHAFTLARDA ZIYORATCHILAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHNI HUDUDIY TASHKIL ETISH

Saydaliyeva Lazokatxon Mahammad qizi
Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sayidaliyevanazokat@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatidagi sakral landshaftlarda ziyoratchilar salomatligini muhofaza qilishning hududiy va tibbiy-geografik jihatlari yoritilgan.. Sakral obyektlarning hududiy joylashuvi, ziyoratchilar oqimi, sanitariya-gigiyena infratuzilmasining holati, ichimlik suvi ta’minoti hamda ziyoratchilar uchun yaratilgan xizmat ko‘rsatish sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Farg‘ona viloyatida 321 dan ortiq qadamjo va mozor ko‘rinishidagi ziyoratgohlar hamda 100 ga yaqin tarixiy-madaniy va arxeologik obyektlar mavjudligi aniqlangan. 2024-yilda viloyat sakral obyektlariga tashrif buyurgan mahalliy ziyoratchilar soni 215 ming kishini tashkil etgan. 20 dan ortiq ziyoratgohda o‘tkazilgan kuzatuvlar va 200 nafar respondent ishtirokidagi anketa-so‘rovnoma natijalari asosida sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash, ichimlik suvi*